



**NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**NAMANGAN
VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL
YANVAR-APREL**



2023-yilning yanvar-aprel oyida, Namangan viloyatida jami **1848,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **105,2 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2023- yil 1- may holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



897

Bino va inshootlar
qurilishi

244

Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

638

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yil bilan solishtirganda 73,3 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 50,4 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,7 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 35,9 foiz ulushni tashkil etdi.

| | Holatiga : | | o'tgan yilga nisbatan, % da |
|--------------------------|----------------|----------------|-----------------------------|
| | 01.05.2022- y. | 01.05.2023- y. | |
| Namangan viloyati | 2427 | 1779 | 73,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Mingbuloq | 79 | 56 | 70,9 |
| Kosonsoy | 269 | 176 | 65,4 |
| Namangan | 124 | 72 | 58,1 |
| Norin | 136 | 104 | 76,5 |
| Pop | 125 | 115 | 92,0 |
| To'raqo'rg'on | 109 | 75 | 68,8 |
| Uychi | 237 | 190 | 80,2 |
| Uchqo'rg'on | 177 | 139 | 78,5 |
| Chortoq | 170 | 119 | 70,0 |
| Chust | 174 | 129 | 74,1 |
| Yangiqo'rg'on | 103 | 92 | 89,3 |
| Namangan shahar | 724 | 512 | 70,7 |
| shundan | | | |
| Davlatobod | 203 | 148 | 72,9 |
| Yangi namangan | 162 | 123 | 75,9 |



2023- yil 1- may holatiga ko'ra Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Namangan sh. (28,8)



Uychi (10,7)



Kosonsoy (9,9)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel uchun

| | Qurilish ishlari, mln. so'm | Shu jumladan: | | |
|-------------------|-----------------------------|------------------------------|-------------------------|-----------------|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Namangan viloyati | 1848220,5 | 107409,0 | 1258773,5 | 482038,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Mingbuloq | 58647,3 | 0 | 44741,5 | 13905,8 |
| Kosonsoy | 156754,6 | 0 | 82959,6 | 73795,0 |
| Namangan | 125451,9 | 0 | 89301,0 | 36150,9 |
| Norin | 92719,0 | 0 | 47982,0 | 44737,0 |
| Pop | 119300,0 | 28724,8 | 74127,5 | 16447,7 |
| To'raqo'rg'on | 100216,5 | 0 | 76037,4 | 24179,1 |
| Uychi | 179579,1 | 22756,8 | 129284,5 | 27537,8 |
| Uchqo'rg'on | 119647,1 | 795,8 | 78189,1 | 40662,2 |
| Chortoq | 173255,2 | 8909,9 | 115531,1 | 48814,2 |
| Chust | 87056,9 | 0 | 42268,7 | 44788,2 |
| Yangiqo'rg'on | 120013,7 | 0 | 69205,7 | 50808,0 |
| Namangan sh. | 515579,2 | 46221,7 | 409145,4 | 60212,1 |
| shundan | | | | |
| Davlatobod | 152595,5 | 0 | 140883,2 | 11712,3 |
| Yangi Namangan | 139052,1 | 15376,9 | 107950,2 | 15725,0 |


2023- yilning yanvar-aprel oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 107409,0 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 117,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,5 % punktga ko'payib, 5,8 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-aprel uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 24,1 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,1% i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 2,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 102,3% ni tashkil etgan holda 1258773,5 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



68,1

2023- yil yanvar-aprel


70,8

2022- yil yanvar-aprel




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Namangan shahri (409145,4 mln. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 22,3 %), Uychi tumani (129284,5 mln. so'm yoki 7,0 %), Chortoq tumani (115531,1 mln. so'm yoki 9,2 %)ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **26,1 %** ni tashkil etdi yoki **482038,0 mln. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yilga nisbatan **111,2 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 59181,1 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1789039,4 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-aprel oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi qurilishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **75,8 %** yoki **1400281,9** mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

7,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 107408,9 mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **7,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **815002,3** mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **58,2 %** ni tashkil etdi

58,2%

34,1%

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **477870,7** mln. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **34,1 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel oylarida


| | Qurilish ishlari, mln. so'm | o'sish sur'ati, % da | Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish |
|------------------------------------|--------------------------------|-------------------------|---|
| Namangan viloyati | 1848220,5 | 105,2 | 1400281,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Mingbuloq | 58647,3 | 113,9 | 49008,9 |
| Kosonsoy | 156754,6 | 96,1 | 114823,1 |
| Namangan | 125451,9 | 93,8 | 93819,9 |
| Norin | 92719,0 | 109,7 | 81216,4 |
| Pop | 119300,0 | 98,5 | 113422,8 |
| To'raqo'rg'on | 100216,5 | 107,5 | 74214,9 |
| Uychi | 179579,1 | 112,4 | 142828,8 |
| Uchqo'rg'on | 119647,1 | 112,0 | 99420,0 |
| Chortoq | 173255,2 | 113,9 | 106421,4 |
| Chust | 87056,9 | 98,3 | 58811,8 |
| Yangiqo'rg'on | 120013,7 | 121,3 | 117623,7 |
| Namangan shahri shundan | 515579,2 | 100,5 | 348670,2 |
| Davlatobod | 152595,5 | 129,2 | 100820,3 |
| Yangi Namangan | 139052,1 | 118,0 | 57411,6 |

**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,7 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga kamaygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga kamayib, 59,2 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 % punktga ko'payib, 37,1 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 33,0 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 12,5 % punktga ko'paygan.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 67,0% (12,5 % punktga kamaygan) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi (0,0% punktga ko'paygan).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022- yil
yanvar-aprel



2023- yil
yanvar-aprel

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 0,9 % punktga ko'paygan va 1,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,7 % ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 0,9 % punktga kamaygan.

